



SAYXUNOBOD SHEVALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI
ФОНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САЙХУНАБАДСКИХ
СЛОВАРЕЙ
PHONETIC FEATURES OF SAYKHUNABAD DICTIONARIES

Oyatullo Nasrullayev,

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

oyatullaxondamirovich@gmail.com

Kalit soʻzlar: Sayxunobod tumani, Sayxunobod shevalari, fonetik xususiyatlar, hudud, mahalliy aholi, matn, shevaga oid soʻzlar, tahlil, adabiy til.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sayxunobod tumani shevalarining fonetik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Sayxunobod tumani hududida yashovchi mahalliy aholidan yozib olingan matnlar asosida shevaga oid soʻzlarning fonetik-morfologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va nazariy tahlil jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, dialektal soʻzlar va adabiy tildagi soʻzlarga qiyosiy munosabat bildirilgan.

Ключевые слова: Сайхунабадский район, Сайхунабадские диалекты, фонетические особенности, территория, местное население, текст, диалектные слова, анализ, литературный язык.

Аннотация: В статье дается описание фонетических особенностей диалектов Сайхунабадского района. Фонетические и морфологические особенности диалектных слов были применены в процессе научно-теоретического и теоретического анализа на основе текстов, написанных местным населением, проживающим на территории Сайхунабадского района. Также проводится сравнение диалектных слов и слов литературного языка.

Key words: Saykhunabad region, Saykhunabad dialects, phonetical features, territory, local population, text, dialect words, analysis, literary language.



Annotation: *The article describes the phonetical features of the dialects of Saykhunabad region. Phonetic and morphological features of dialect words were applied in the process of scientific-theoretical and theoretical analysis based on texts written by the local population living in the Saykhunabad region. It also compares dialect words and words of the literary language.*

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasi fonetikasi unlilar tizimi(vokalizm), undoshlar tizimi(konsonantizm), fonetik qonunlar va jarayonlardan iborat. Singarmonizmni yo‘qotgan, o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarda unli fonemalar soni 6-7 tadan oshmaydi. Bu shevalardagi fonemalarning ba‘zilari sifat jihatidan farqlanadi.

Unlilar tizimi. Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevalari singarmonizmni yo‘qotgan shevalar guruhiga kiradi. Bu shevada 7 ta unli tovush mavjud. Bular – i, i:, u, e, o, ā, ä.

Unlilar tizimi fanda vokalizm deb yuritiladi. Unlilar 3 xil tasnifga ega: 1. Lablarning ishtirokiga ko‘ra. 2. Tilning yotiq harakatiga(gorizontal) ko‘ra. 3. Og‘izning ochilish darajasiga(vertikal) ko‘ra.

Unlilar lablarning ishtirokiga ko‘ra (a)lablangan va (b)lablanmagan kabi 2 turga bo‘linadi. Bular: 1) lablangan – u, o, ā; 2) lablanmagan – i, i:, e, ä.

Unlilar tilning yotiq harakatiga(gorizontal) ko‘ra 2 turga bo‘linadi. Bular: 1) old qator unlilar: i, i:, e, ä; 2) orqa qator unlilar: u, o, ā.

Unlilar og‘izning ochilish darajasiga(vertikal) ko‘ra 3 turga bo‘linadi. Bular: 1) yuqori tor unlilar: 1) i, i:, u; 2) o‘rta keng unlilar: e, o; 3) quyi keng unlilar: ä, ā.

Ä(ä) – unlisi aksariyat turkiy tillarda qo‘llanadi va old qator, quyi keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo‘llaniladi: *ätä, äkä, mänä, sänä*. Bu tovush *zāmān, hāmān, bāhā, mābādā, jāhāñir, bāhādir, tāmāšā, kāvāk, māšinā* kabi so‘zlarda ā tovushidek aytiladi.

Ā(ā) – unlisi orqa qator, quyi keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo‘llaniladi: *āš, bāš, tāγā, bāvā*. Ā unlisi *Pämür, äkian, känsert, pämidor, källej, näyabr, käptok* kabi so‘zlarda ä kabi talaffuz



qilinadi. Shuningdek, *tonnä, orden* kabi soʻzlarda “o” ga monand aytiladi. *Termis, tormiz, direktir* kabi soʻzlarda ham “o” unlisi i kabi talaffuz qilinadi.

Ā unlisi turkiy tillarga xos emas, lekin bu unli arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda qayd qilinadi. Oʻzbek tilining shahar tipidagi, yaʼni qarluq lahjasi shevalarida qoʻllaniladi. Y. D. Polivanov uni forsiy tillarning taʼsirida paydo boʻlganini taʼkidlaydi. Sh. Shoabdurahmonov ā unlisining paydo boʻlishini oʻzbek tilida keyingi hodisa deb qaraydi hamda bu unli shahar shevalarida lab undoshlari va chuqur til orqa undoshlari taʼsirida umumturkiy a unlisi oʻrnida paydo boʻlgan deb hisoblaydi. N. Z. Hojiyeva esa tojik shevalarining taʼsiri boʻlsa kerak deb taxmin qiladi. Gʻozi Olim Yunus esa, aksincha, ā unlisini forsiy emas, forsiy deyish yanglish fikr. Bu tovush chin turk tovushidir deb aytib oʻtadi.

E(e) – old qator, oʻrta keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha oʻzbek shevalari: *el, bel, ter, šer*. E tovushi kechä, ekrän, neʼmät kabi soʻzlarda toʻliq talaffuz qilinadi. Telefon, teatr, okean, material kabi soʻzlarda esa i ga monand aytiladi.

I(i) – indifferent, shahar shevalarida tarixan i: va i: unlilarining birlashishi(konvergensiya) natijasida hosil boʻlgan tovushni hosil qiladi, old qator, yuqori tor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda i: unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan variantini bildiradi. Shahar shevalarida barcha boʻgʻinlarda kela oladi: *bir, bārdi, qiččä, bilan, kir, qiryoq, zirapcha, likāpchä*. I tovushi kunduz, qovun, tovuq, tovush kabi soʻzlarda ikkinchi boʻgʻindagi u tovushi i kabi aytiladi.

I:(i:) – old qator, yuqori tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, choʻziqroq talaffuz qilinadi. Barcha oʻzbek shevalarida mavjud: *si:jir, i:š*.

U(u) – orqa qator, yuqori tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha oʻzbek shevalariga xos: *ul, bu, tur, kun*. Kulgi, čirmoviq soʻzlari shevada *kulgu, chirmāvuq* shaklida talaffuz etiladi.

O(o) – orqa qator, oʻrta keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha oʻzbek shevalari talaffuzida bor: *āt, bolä, kol*. O tovushi *kol, os, čol, žorä, motābär* kabi soʻzlarda torroq, *bori, xorāz, romāl, qorimāq* kabi soʻzlarda esa kengroq eshitiladi.



Shevadagi sof o'zbekcha so'zlarda unlilarning yonma-yon kelishi kuzatilmaydi. O'zlashma so'zlarda unlilar qo'shaloq kelishi mumkin. Bunday holatlarda unlilar orasida bitta undosh orttiriladi yoki bitta unli qilib talaffuz etiladi. *Oila – ājilā, doimo – dājimā, soat – sāyāt, kauchuk – kāvučuk* kabi so'zlarda yonma-yon kelgan unlilar orasiga bitta undosh orttirilgan. *Muallim – mālim, saodat – sādāt, muammo – māmā, muolaoa – mālāžā* kabi so'zlarda esa yonma-yon kelgan undoshlardan birini tushurib, ikkinchisini cho'ziqroq holda talaffuz etiladi. *Mātbā, mudāfā, tāssurāt, tājjub, tālluqli* kabi so'zlarda bitta unli talaffuz etilmagan.

Undoshlar tizimi. Ilmiy adabiyotlarda undoshlar tizimi konsonantizm deb yuritiladi. Tarixan xilma xil bo'lgan o'zbek shevalarining undoshlar tizimini 3 xil ko'rinishda tasnif qilish mumkin.

I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar 3 guruhga bo'linadi:

1. Lab undoshlari ikkiga bo'linadi:

a) lab-lab undoshlari: b, p.

b) lab-tish undoshlari: m, v, (f).

2. Til undoshlari:

a) Til oldi undoshlari: t, d, s, z, č, ž(j), š, ž(dj), n, l, r.

b) Til o'rta undoshi: y.

c) Til orqa undoshlari: g, k, ŋ.

d) Chuqur til orqa undoshlari: q, γ, x.

3. Bo'g'iz undoshi: h.

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar 2 ga bo'linadi.

1. Portlovchilar: b, ž, m, n, ŋ, t, g, q, p, d, k, č.

2. Sirg'aluvchilar: š, j, x, h, l, v, f, s, z, r, γ, ž.

III. Undoshlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ham 2 turga tasnif qilinadi:

1. Jarangli undoshlar: b, j, n, ŋ, γ, z, ž, ž, l, r, m, g, d, v.

2. Jarangsiz undoshlar: p, k, t, č, x, h, š, q, f, s.



Bundan tashqari yana qo'shimcha tasniflar bo'lib, l, m, n, η, r sonorlar hisoblanadi. Bundan m, n, η burun tovushlari, l yon tovushi, r titroq tovushi hisoblanadi.

“b” va “p” fonemasi. Bu undoshlar lablarning ishtirokiga ko'ra va portlovchiligiga ko'ra bir xil tasnifga kiritilsa-da, biroq jarangli va jarangsizligiga ko'ra farqlanadi. Ayrim shevalarda esa bu undoshlar o'rtasidagi farq yo'qolib, jarangsizlashadi va “p” holida talaffuz qilinadi. Bu hodisa asosan ravishdosh qo'shimchasini olgan fe'llarda kuzatiladi. Masalan: *išlāp, ušlāp, bārip*.

Shuningdek, “b” tovushi “v” kabi talaffuz qilinadigan so'zlar ham mavjud: Bovo – bobo, dadaning akasi [bāvā] Sheva vakillari bu so'zni adabiy tildagi amaki so'zi o'rnida qo'llashadi. Bobo so'zining fonetik talaffuz shakli. Yana *dārvāz, kāptārvāz* so'zlarini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

“m” va “n” fonemasi. M tovushi ayrim so'zlarda n tovushi o'rnida ham qo'llanilishi mumkin: *shanba – shāmbā, ko'rinmas – korimmās, qo'llanma – qollāmmā, sunbula – sumbulā, Istanbul – Istāmbul*.

“k” va “g” fonemasi. So'z oxirida bu tovushlar o'rtasida farq yo'qolib, bir xil talaffuz qilinish holatlari uchraydi. Masalan, *barg - bārḳ, pedagog - pedāgok* kabi so'zlarda k tovushidek aytiladi. Aksincha, *bilāg, tilāg, terāg, bešig* kabi so'zlarda g tovushiga moyil aytilish holatlari kuzatiladi.

“d” va “t” fonemasi. Bu undoshlar o'rtasidagi farq so'z oxirida kelganda deyarli yo'qoladi. D tovushining t kabi talaffuz qilinishi kuzatiladi. Masalan, *mādāt, qānt, zumrāt, ābāt, dārd, mārt* kabi. Ayrim so'zlar oxirida d va t undoshlari talaffuzda tushib qolishi mumkin: xursand, Toshkent. Ba'zi so'zlarda t undoshi ta'sirida d tovushining jarangsizlanishi kuzatiladi: *kutdi – kutti, ketdim – kettim, aytdi – äytti*. T tovushining ch shaklida talaffuz qilinishi ham kuzatiladi: *tushkurmoq – čushkurmoq, tish – chish, tushunmoq – čunmoq*.

“q” va “g” fonemasi. *Tog'ga - tāqqā, bog'ga - bāqqā, sig'guncha - siqqunčā, yorug' - jāriq* kabi so'zlarda bu tovushlar o'rtasida farq yo'qolib q ga monand aytiladi. Shuningdek, *bulāy, qišlāy, qājiy* so'zlarida q tovushi g' ga moyil aytiladi. G' tovush ayrim so'zlarda v undoshi kabi talaffuz qilinadi: *og'iz – āviz*. Q



tovushida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: *buzoq* – *buzāv*. Faqat bu yerda so'z oxiridagi tovush o'zgargan.

“ž (j)” va “z (dj)” fonemasi. *žožä, žäžži, žudä, žähän* kabi so'zlarda til oldi, portlovchi, jarangli “ž (j)” tovushini ifodalaydi. *Žurnäl, ziräfä, vizdän, äzdäd* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi, sirg'aluvchi, jarangli “z (dj)” tovushini ifodalaydi. Ayrim so'zlarda j ning jarangsiz jufti ch kabi talaffuz qilinishi uchraydi. Masalan, *bāč, tāč*.

“f” va “v” fonemasi. F undoshi *pil, pe'l, putbäl, päjdä, pursät, Šäräpät, sähipä, näfs* kabi so'zlarda p ga monand aytiladi. F undoshi shevada *ävzäl, ävyän, kävt, ävsänä* kabi so'zlarda esa v tovushi kabi talaffuz qilinadi. V tovushi *äftämät, äftämäbil* kabi o'zlashgan so'zlarda f tovushiga monand aytiladi. *Xavf – xäf, afv – äf* kabi so'zlarda esa v tovushining tushib qolishi kuzatildi.

“X” va “H” fonemasi. X harfi chuqur til orqa tovushini ifodalaydi. H harfi esa bo'g'izda hosil bo'ladigan undoshni ifodalaydi. Shevada bu undoshlar o'rtasida farq deyarli yo'qoladi. Ammo ayrim so'zlarda farq sezilib turadi. H tovushi o'ta yumshoq talaffuz qilingan holatlarda, *xohlamoq – xälämāq, fahm – fām* kabi so'zlarda tushib qoladi. X undoshi qattiq talaffuz qilinadi, shuning uchun tushib qolishga moyil emas, aksincha, shevada q ga o'xshash talaffuz qilinishi kuzatiladi. Masalan, *xalq – qälq, xulq – qulq, mix – miq*. H undoshining tushib qolish darajasiga bormagan holatlarida y deb talaffuz qilinishi mumkin, ammo x undoshida bunday holatni ko'rmaymiz. Masalan, *shohi – šāyi, Abdurahim – Ābduräjim, Shohista – Šājistä, Ibrohim – Ibrājim*. Yopiq bo'g'inda e tovushidan so'ng doim h qo'llaniladi: *ehtimäl, mehmän, mehnät*. Yopiq bo'g'inda i tovushidan keyin x undoshi keladi: *mix, six, ixchäm, ixtirä*. Rus-yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda esa ko'pincha x talaffuz etiladi: *texnikä, ärxiv, ärxitektir*.

“z” va “s” fonemasi. Z tovushi so'z boshida aniq talaffuz qilinadi. Jarangsiz undoshlardan oldin yoki so'z oxirida kelganda, ko'pincha, s tovushiga moyil aytiladi. Masalan, *izchil – isčil, tuzsiz – tussiz, iztirob – istirāp, izhor – ishār, izquvar – isquvär* kabi. S tovushi shevadagi so'zning boshi, o'rtasi va oxirida erkin qo'llanuvchi unumli undosh hisoblanadi.



“š” va “č” fonemasi. Bu undoshlar adabiy tilda ikki harf birikmasi orqali berladi, lekin transkripsiyada “š” va “č” ko‘rinishlari qabul qilingan. S va h harflari alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belqisi qo‘yiladi. Masalan, *Is’hāq, ās’hāb, mus’hāf*. Bunday holat arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardagina uchraydi. Ch tovushi tushunmoq kabi so‘zlarda chunmoq shaklida kelishi mumkin. Sh tovushi shirguruch kabi so‘zlarda sirguruch deb aytiladi.

“ng” fonemasi. Bu tovush turkologiya transkripsiyasida ŋ belgisi bilan ifodalanadi. Bu tovush so‘z boshida hech qachon kelmaydi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida keladi. Masalan, *inṛāmāq, dāṇāsā, siṇil, koṇil* kabi. Shevada bu tovushni yozuvda alohida n va g undoshlaridan farqlashga hojat qolmaydi. Sababi ŋ belgisi bir harfdan iborat. Rus-yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda n va g har doim alohida tovushni ifodalaydi. Masalan, *kāngress, tāngens, shtāngä*.

Shevada qo‘sh undoshlarning kelishi haqida. *Quvvāt, chäqqān, izzāt, qässāb* kabi so‘zlarda qo‘sh undoshlar aniq talaffuz qilinadi.

Chet tillardan o‘zlashgan ayrim so‘zlarda qo‘sh undosh bir undosh shaklida talaffuz etiladi. Masalan, *million - miljān, milliard - miljārt, komissiya - kāmīsā, artilleriya - ārtilerijä, grammatika - grāmātikā* kabi so‘zlarda qo‘sh undoshlardan biri tushib qoladi.

Gramm - grām, metall - metāl, kongress - kāngres kabi o‘zlashgan so‘zlar oxirida talaffuzda undoshlarning biri tushib qoladi.

Silla - silä, ushshoq - uššāq, yalla - jälä, tilla - tilä, chinni - čini, qattiq - qätiq kabi so‘zlarni talaffuz qilganimizda qo‘sh undoshlardan biri tushib qoladi. Bu holat *silä, ušāq, jala, tilä, čini, qätiq* so‘zlari bilan bir talaffuz shaklini yuzaga keltiradi. Bunday holatda so‘zlarning ma’nosini farqlay bilishimiz kerak bo‘ladi. Buni matnda qo‘llanishiga qarab farqlay olishimiz mumkin bo‘ladi.

Bir bo‘g‘inda yonma-yon ikki xil va undan ortiq undoshlarning kelishi qator undoshlar deyiladi. Masalan, *go’sht - goš, do’st - dos, xursand - xursän, monand - mānän* kabi. Bunday ayrim so‘zlar talaffuzida oxirgi undoshlardan biri talaffuzda tushib qoladi.



Soʻz boshida qator undoshlarning kelishi faqat oʻzlashma soʻzlardagina kuzatiladi: *stol - istāl, broker - brākir, bloger - blāgir...*

Shevasidagi ayrim soʻzlarda kuzatiladigan fonetik jarayonlar. Ushbu shevada diftong, singarmonizm, umlaut hodisalari uchramaydi.

Assimilatsiya – soʻzlardagi undoshlarning oʻzaro oʻxshash boʻlishini bildiradi. Buning shevada ikkita turi bor. S.Ashirboyevning “Oʻzbek dialektologiyasi” kitobida bu hodisaning ikkita turi borligini misollar orqali keltirib oʻtadi. 1. Progressiv assimilatsiya – bunda oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushni oʻziga moslab oladi: *bizni – bizzī, uyni – ujjī, sochni – sāčči*. 2. Regressiv assimilatsiya – bundan keyingi tovush oʻzidan oldingi tovushni oʻziga moslab oladi: *zamonlar – zāmāllār, atlas – āllās*.

Dissimilatsiya – soʻzdagi bir-biriga oʻxshash tovushlarning boshqa nooʻxshash tovushlarga aylanishi boʻlib, assimilatsiyaga teskari boʻlgan fonetik hodisa hisoblanadi: *zarar – zārāl, zarur – zārīl, devor – devāl, anjir – ānjil*. Koʻrib turganingizdek, asosan, sonorlardan boʻlmish r, l, n tovushlar dissimilatsiya hodisasiga uchragan.

Spontan oʻzgarishlar – p, k, t, q tovushlari jaranglashish xususiyatiga ega. Bunga *sariq – sāriy, tovush – dāvuš, bilak – biläg, terak – teräj* kabi soʻzlardagi oʻzgarishlarni misol qilib keltirishi mumkin. Bunday hodisa biror tovushni taʼsirida roʻy bermaydi, balki shevaning tarixiy taraqqiyoti natijasida hosil boʻladi.

Spirantizatsiya – talaffuzda portlovchi undoshning sirgʻaluvchi variantga ega boʻlishi hisoblanadi. Bu oʻzgarish, asosan, b, v, d, z undoshlarida sodir boʻladi: *abzal – āfsāl, sabzi – sāvzi*.

Metateza – soʻz tarkibida undoshlarning oʻrin almashishi hodisasidir: *tuproq – turpāq, shanba – shāmbā*.

Reduksiya – soʻz tarkibidagi ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishi hisoblanadi: *b(i)län, k(i)r, z(i)rāpčä*.

Eliziya – bu tovush tushishi hodisasi boʻlib, ikki koʻrinishga ega. Birinchi turida qoʻshma soʻz talaffuzida oldingi soʻz tarkibidagi unli tovushning tushib qolishi hodisasidir: *bora oldi – bārāldi, keta oldi - ketāldi, yozib yubordi – yāzvārdi*.



Ikkinchi turida soʻz tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlangan undosh tushib qoladi: *boʻl – bo(l)*, *qilsang – qisāḡ(l)*, *yoʻq – yo*. Koʻrinib turibdiki, asosan, l tovushi bunday hodisaga uchramoqda.

Proteza – soʻzda unlilarning orttirilishi hodisasi: *umr – umir*, *vaqt – vaqit*, *fikr, fikir*, *aql – āqil*.

Geminatsiya – undoshlarning takrorlanishi hisoblanadi: *qizcha – qičča*, *oriq – ārriq*, *maza – māzzā* va hk.

Yuqoridagi tahlil va misollardan koʻrinib turibdiki, Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasi Sayxunobod tumanining, qolaversa, mamlakatimizning boshqa hududlaridagi shevalaridan oʻzining fonetik xususiyatlari bilan farqlanadi va bu shevani oʻrganishning dolzarbligini koʻrsatadi.